

SAMARQAND VILOYATI, PASTDARG'OM TUMANI, QO'QONI MAHALLASIDAGI AYRIM SHEVALAR LUG'ATI

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti talabasi **Usmankulova Ezoza***

Annotatsiya: Quyidagi maqolada Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani, Qo'qoni mahallasi hududida joylashgan turli mavzularga oid shevalar lug'ati keltiriladi, izohlanadi, tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sheva, uy-ro'zg'or, kiyim-kechak, o'yin, urf-odat, ijobiy va salbiy sifatlar, ovqat.

Barchamizga ma'lumki, sheva deganda ma'lum bir hududda yashaydigan aholining nutqida faol qo'llaniladigan, umumxalq tilidan fonetik, grammatik, morfologik, leksik jihatlariga ko'ra ajralib turuvchi, boshqa hududda istiqomat qiladiganlar uchun esa ma'nosi tushunarsiz yoki o'zgacha mohiyat anglatadigan so'zlar demakdir.

Quyida esa o'zim yashaydigan mahallamning shevalarini keltirmoqchiman:

Uy-ro'zg'or buyumlariga oid shevalar:

Sheva	Adabiy til
1. Tomcha	Oshxona
2. Shurtki	Supurgi
3. Tuvana	Juvoldiz
4. Grabil	Xashkash
5. Shoxa	Panshoxa
6. Lapatka	Belkurak
7. Lingi	Kichik qop
8. Lali	Likopcha
9. Taxsimcha	Likopcha
10. Plaskupsa	Ombur

11.Taqqaychi	Tokqaychi
12.Taxtay	Taxtakach
13.Obtava	Oftoba
14.Nampar	Nonpar
15.Iynatiravuch	Ignateravich
16.Novis	Ayvon
17.Qasnoq	Mantiqasqon
18. Invalik	Qo'l yuvadigan idish
19.Cho'lp	Baraksuzgich
20.Pushta	Ekin ekiladigan qatorning tepa qismi
21. Jo'ya	Ekin ekiladigan qatorning past qismi
22. Uvat	Daladagi ariqlar cheti
23.Pushta	Pomidor ekiladigan qator

Kiyim-kechaklar:

Sheva	Adabiy til
1. Qiytiqcha	Mato bo'lagi
2. Minsak	Ayollar azada kiyadigan kiyim
3. Ichkicha	Nimcha
4. Qo'ltiqcha	Nimcha
5. Qars	Chorsi
6. Ishton	Lozim
7. Po'pak	Jamalak
8. Tapich	Shippak

9. Kista	Cho'ntak
10. Yurgak	Chaqaloqlarni o'raydigan mato
11. Yaktak	Erkaklar azada kiyadigan kiyim
12. Qiyiqcha	Uchburchak
13. Massi	Mahsi
14. Bortinka	Erkaklar oyoq kiyimi
15. Erinka	Oyoqkiyim
16. Tuyma	Tugma
17. Sare	Kelinlar ta'zim solgichi
18. Jiyak	Ayol-qizlar kiyimini bezashda ishlatiladi

O'yin nomlari

Sheva	Adabiy til
1. Qumtaka	Loydan turli xil shakllar yasash
2. Zuv-zuv	Nafas olmay zuv deb turish
3. Ko'chamak	Tosh o'yini
4. Zapas	To'p urar
5. Pabida	To'p urar
6. Doshinmachoq	Yashinmachoq
7. Qolamachoq	Quvlamachoq
8. Mak-mak	Qo'lga tosh olib otib o'ynash
9. Kachela	Arg'amchiq uchmoq
10. Rang-rang	Hamma bir xil rangni ushlash
11. Qo'rchoqcha	Qo'g'irchoq o'yini

12. Charli chaplen	Cho'ziladigan ipga sakrab o'ynaydigan o'yin
--------------------	---

Urf-odat va marosimlar

Sheva	Adabiy til
1. Chupron	Sunnat to'y
2. Betochar	Yuzochar
3. Xudoyi	Azadan bir kun o'tib qilinadi
4. Maslahat oshi	To'ydan oldin qilinadi
5. Momo to'y	Sunnat to'y
6. Kulcha jumalatar	Endi yurgan bolaning oyoqchalari ostidan kulcha yumalatish
7. Pata to'y	Fotiha to'y
8. To'qqiz ko'rdi	Kelin sarpolarini ko'rsatish
9. Payshanba	Is kuni ham deyiladi.
10. Darveshona	Navro'zda hammadan pul yig'ilib, ho'kiz so'yilib, suyaklari suvga oqiziladi. Sababi o'lik kam bo'lsin deb.
11. Belgi	Qiz tomon rozilik bersa, belgi deyiladi.
12. Suprochar	Sunnat to'ydan oldin qilinadi
13. Chilla quvdi	Chaqaloq chillasi chiqqandan keyin bironta qarindoshnikiga boorish
14. Oyna qaratar	Chimildiqdagi urf-odat
15. Sadaqa	O'tganlarga bag'ishlanadigan ehson
16. Is	O'tgan odamlarni xotirlab is qilinadi.
17. Aqiqa	Chaqaloq 7 kunlik bo'lganda bo'g'irsoq pishirilib tarqatiladi
18. Chachala	Yuzocharda bolachalarga sochiladi

19. Ko'k yechdi	O'lgan insoniga 40 kun bo'lgandan so'ng ko'k kiyim kiyganlar yechadi.
20. To'y solmoq	To'ydan oldin kelinnikiga mayda-chuyda yuborish
21. Charlar	Chaqirindi
22. Kuyov salom	To'ydan keyin kuyov o'rtog'I bilan kelinnikiga borib, mehmon bo'ladi.
23. Hajoshi	Hajdan kelgandan so'ng maraka qilinadi

Insonlarga xos ijobiy va salbiy sifatlar

Sheva	Adabiy til
1. Julik	Pishiq
2. Hashtaki	Buzuq
3. Bebosh	Buzg'unchi
4. Bebah	Bechora
5. Mijing	Ezma
6. Mirdashov	Salbiy ma'noda urishish
7. Jittaki	Likkillagan
8. Kayvani	Ko'pni ko'rgan
9. Talpish	Dovdir
10. Ochvaqa	Ochofat
11. Laqqi	Sergap
12. Allamchi	Aldoqchi
13. O'r	Qaysar
14. O'lamsa	Qurumsoq
15. Qotti	Pulni haddan ziyod ayaydigan kishi

Oziq-ovqat nomlari

Sheva	Adabiy til
1. Chalpak	Cho'zma
2. Moshkichri	Moshxo'rda
3. Sorisuv	Zardob
4. Shirvinich	Shirguruch
5. Keskanosh	Unoshi
6. O'rama	Xonim
7. Chakki	Suzma
8. Jajmich	Issiq nonga qaymoqni surtish
9. Birinch	Guruch
10. Sudratma	G'ilmindi
11. Gavatak	Galpis
12. Lahcha	Xamirni kesib ovqat tayyorlash
13. Piyova	Suyuq ovqat
14. Sorimoy	Sariyog'
15. Shulla	Shovla
16. Mayak	Tuxum

Yuqorida hududimga oid turli xil mavzulardan shevalar keltirildi. Qo'qoni mahallasi shevalarda boy mahalla sanaladi va bu kabi namunalardan yana ko'plab keltirish mumkin.

Xulosa shuki, mazkur maqolada turli mavzular doirasida uchraydigan shevaga oid misollar tahlil qilinib, ularning ma'nosi, qo'llanilish o'rni hamda adabiy til bilan o'xshash va farqli jihatlari yoritildi. Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, shevalar insonlarning kundalik muloqotida, oilaviy muhitda, kasb-hunar faoliyatida, marosimlarda, xalq og'zaki ijodida hamda turli ijtimoiy munosabatlarda faol qo'llanilib kelmoqda. Bu esa shevalarning hayotiyliigi va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini tasdiqlaydi. jlanishiga, uning boy lug'at tarkibini saqlashga hamda milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Demak, shevalar xalqning bebaho

ma'naviy merosi bo'lib, ularni e'zozlash va kelajak avlodga yetkazish har birimizning muhim vazifamizdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi. – “Navro'z “ nashriyoti . - Toshkent-, 2016. -139 b
2. Reshetov V. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi . “O'qituvchi “ nashriyoti . Toshkent, 1978. -232 b

Internet saytlari:

3. Wikipedia.org
4. Oyina.uz
5. Arxiv.uz